

7- SINF ADABIYOT DARSLARIDA HIKOYA MATNLARI BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI

*Namangan viloyat Pop tuman MMT ga qarashli
10- sonli IDUM ning ona tili va adabiyot fani o'qitivchisi
Omonova Gulzoda Mirzayevna*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada 7-sinflar adabiyot darsligi asosida hikoya matnlari bilan ishlash hamda ushbu jarayonda interfaol metodlardan foydalananish haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar. *Adabiyot, maktab, ta'lif, metod, o'qitish usuli, asar, hikoya, ijod, ko'nikma, malaka.*

Globallashuv sharoitida maktab ta'lifi oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalar o'rta maktab yoshidagi o'quvchilarning umumiyo rivojlanishining o'sganligi, psixologiya va xususiy metodika sohasidagi yutuqlar o'qitish mazmuni va metodlari mazmunini o'zgartirishlar kiritishni taqozo etmoqda. Shunga bog'liq holda badiiy asarni tahlil qilish metodikasi takomillashtirilib borilmoxda. Bu esa takroriy bayon qilish mashqlarini kamaytirishga, ijodiy va o'qilgan matn yuzasidan o'z fikrini bayon qilish ko'nikmasini shakllantirishga doir topshiriqlar tizimini ko'paytirishga, asar qismlari ustida emas, balki yaxlit asar ustida ishlashni taqozo etmoqda. Asar g'oyasi va obrazlarning xarakter xususiyatlarini tushunishlarida o'quvchilarning mustaqilligi, faolligini oshirish, matn ustida ishlashda turfa xil topshiriqlardan hamda texnika vositalaridan foydalananishni talab qiladi.

O'zbek adabiyotini o'qitish bo'yicha U.Dolimov, A.Zunnunov, S.Matchonov, Q.Yo'ldoshev, M.Mirqosimova, Q.Husanboyeva, R.Niyozmetova, V.Qodirovlarning doktorlik tadqiqotlari amalga oshirildi. Ustoz olimlar rahbarligida M.Sariboyeva, I.Rajabova, H.Suyunov, G.Xolboyeva, M.Hazratqulov, K.Mavlonova, G.Fayzullayeva, S.Kambarova, M.To'ychiyeva, O.Boltayeva, I.Rahimova, G.Mamatova kabi tadqiqotchilarning o'quvchilar ma'naviy sifatlari, intellektual salohiyatini oshirish, badiiy matnni integratsiyalab o'rganish, asar qahramonlarini tanqidiy baholash, adabiynazariy tushunchalarni o'rganishga qaratilgan izlanishlari olib borildi. Ularning barchasini turli muammolar doirasida yagona maqsad – adabiy ta'lif samaradorligini ta'minlash, bunda ma'naviy kamolot tarbiyasiga badiiy matn ustidagi ishlar bilan bog'liq muayyan yondashuvlarni birlashtirib turishini qayd etish lozim. Rus metodist olimlari G.Pransova, Ye.Romanicheva, A.Mayorov, T.Braje, N.Belyayeva kabi olimlarning qarashlarida ham matn ustida ishlash metodikasi ishlangani va milliy o'qitishda ularning ayrim qarashlariga tayanish hollari kuzatiladi. Ma'lumki, adabiy ta'lif jarayonida badiiy asar ustida ishlashning muhim talablari mavjud bo'lib, ular muayyan metodik yondashuvlarni taqozo etadi. Asar mazmunini tahlil qilish va o'qish (to'g'ri, tez, ongli, ifodalii) o'zaro izchillik vabog'liqlikda amalga oshiriladi. O'quvchilarning shaxs sifatida kamol topishida asarning g'oyaviy asosi, mavzusi, obrazlar tizimi, sujet chizig'i, qurilishi va badiiy ifoda vositalarini tushuntirish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu jihatlar ezgu sifatlar qatori bog'lanishli nutq takomiliga ham xizmat qiladi. Matn ustida ishlash jarayonida bolalarning hayotiy kuzatishlari va tajribasiga asoslanish asar mohiyatining teran idrok etilishi va tahlil qilishining muhim omillaridan biridir. Shuningdek, badiiy asar matni ustida ishlash orqali

o‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyatini yanada faollashtirish, atrof-muhit, jamiyat hayotiga xos bilimlarni chuqur o‘zlashtirish, ilmiy mushohada yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham zarur muhit yaratiladi.

O‘zbek adabiyotida hikoya juda qadimdan boshlangan. Ilk yozma adabiy yodgorliklar - Kultegin va To‘nyuquq bitiktoshlarida bayon qilingan voqealar ishtirot etuvchilar tomonidan hikoya qilingan. Nosiriddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asarida ham axloqiy xarakterdagi hikoyaning yaxshi namunalari bor. Bobomiz Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonining 5-maqolotidagi “Hotami Toy hikoyati”, 20- maqolatidagi “Ul qul hikoyati”, “Sab’ai sayyor” dostonidagi yetti musofir hikoyalari ham bu janrning ilk namunalari hisoblanadi. XVI asrda yaratilgan Poshshoxojaning “Gulzor” va “Miftoh ul-adl” asarlari o‘zbek hikoyachiligining rivojlanishiga asos bo‘lgan.

Hikoya inson hayotida yuz bergan ixcham voqeani lo‘nda ifodalashga mo‘ljallangan. Unda shu voqeaga qadar personaj hayotida nima bo‘lgan, qanday ro‘y bergan, kim bilan - bular to‘g‘risida ma’lumot berish shart emas. Juda zarur bo‘lsa, ayrim detallar orqali ishora qilinishi mumkin. Masalan, A.Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasida Qobil boboning kechagi kuni haqida lom-mim deyilmaydi. Egamberdi paxta-furushdan kichkina shart evaziga ikkita ho‘kiz olgan Qobil boboning ertasi to‘g‘risida “bu shart kuzda ma’lum bo‘ladi”, deb xabar beradi, xolos. G‘.G‘ulom esa “Mening o‘g‘rigina bolam” hikoyasidagi o‘g‘rining kechagi kunini lo‘nda detallar orqali to‘ldiradi. Uydan biron narsa olmay chiqib ketgan yigitning ertangi kuni haqida hech qanaqa ma’lumot bermaydi. Ixchamlik hikoyaning muhim belgisi, lekin unda personaj hayotidan birgina lavha, uzoq davrlik voqealar, personajlarning butun umr yo‘li, bir emas, bir necha odamlar taqdiri, xarakterning shakllanish jarayoni, ruhiy holatlarning almashinib turishi, muhim fazilat bo‘lib qolishi mumkin. Biroq har qanday ko‘rinishda ham tasvir siqiq tarzda beriladi.

Fikrimizcha, hikoya bilan ishlashda o‘quvchilar uning mazmunini o‘qish chog‘ida anglab yetsa, tahlil paytida poetik vositalarni o‘rganishga keng yo‘l ochiladi. Shu bois ham o‘qituvchi matn ustida ishlashda bir qancha masalalarni e’tiborga olishi zarur. Jumladan:

1. Asar matni ustida ishlashning maqsad, vazifalarini begilash va shu asosda ish mazmunini rejalashtirish.
2. Asar tahliliga doir dars bosqichlarini belgilash.
3. Tahlil uchun savol-topshiriqlar tizimini ishlab chiqish.
4. Matn tahlilini amalga oshirishga oid yondashuvlarni rejalashtirish.
5. O‘quvchilarda shakllantirilishi zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar doirasini aniqlash.

Hikoya bolalarda personajlarning xatti-harakatini muhokama qilib, baholash ko‘nikmasini o‘siradi. O‘zлari yoqtirgan qahramonlarga o‘xshashni xohlagan o‘quvchilar albatta bu qahramonlarning yaxshi xulq-atvorlariga, mard va jasurligiga, aqli va farosatliligiga, mehnatkash va uddanburonligiga ham ahamiyat beradilar, bu fazilartlarni o‘zlarida shakllantirishga harakat qiladilar.

O‘quvchilarni hikoya orqali tarbiyalshda milliy qadriyatlarimiz va urfodatlarimizni bosh mezonlardan biri sifatida belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o‘z navbatida o‘quvchining bir-biriga bo‘lgan mehr-oqibatliligi va o‘zaro hurmat, qadriyatlarimizni e’zozlaydigan insonlar

bo'lib yetishishini ta'minlaydi. Hikoyalar yosh avlodni ana shu ruhda tarbiylaydigan baynalminal badiiy quroldir.

Yaxshi ayonki, metodika ilmida 5-7-sinflar tayanch sinflar deb yuritiladi. Mazkur sinflardagi adabiy tahlil yuqori sinflardagidan farq qilib, bunda o'quvchilar diqqati matnni ifodali o'qishga, asar mazmunini o'zlashtirishga, yozma va og'zaki nutqni rivojlantirishga qaratiladi. O'qituvchi ko'proq o'quvchi nutqi orqali, uning taassurotlarini tinglashga va fikr-mulohazalarini boyitishga intiladi, asarda tasvirlangan voqeа-hodisalarning yaxshi va yomon oqibatlarini tushunib olishlarida o'quvchilarga ko'maklashadi, ma'naviyatiga hamda tarbiyasiga alohida e'tibor beradi. O'quvchida badiiy asarni to'g'ri anglash va ta'sirlanish xususiyati adabiy asar o'qish bilan o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaydi. Badiiy asarning mohiyatini anglab yetish uchun har bir kishi muayyan darajada estetik tayyorgarlikka ega bo'lishi kerakki, umummilliy miqyosda bu yumush faqat maktab adabiy ta'limi tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Ya'ni, maktabni bitirgan o'quvchida badiiy asarni o'qish va anglash bo'yicha muayyan tushunchalar shaklantirilishi, badiiy tahlilning ilk ko'nikmalari yuzaga keltirilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Зуннунов А. ва бошқ. Адабиёт ўқитиши методикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 368 б.
2. Safo Matjon. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar. (O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma). – Т.: «O'qituvchi», 1996. 37-bet.
3. "Til va adabiyot ta'limi" jurnali, 1-12 sonlar, 2018.
4. Фитрат. Адабиёт қоидалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 25-б
5. Мавланова Р. ва.бошқ. Педагогика. – Тошкент: Ўқитувчи, 2001. – 204 б